

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03.30.01.2020. Ped. 26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MUXIYATDINOVA AYNURA MURATDINOVNA

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING
MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY
TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta‘lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Muxiyatdinova Aynura Muratdinovna

Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini
rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish..... 3

Мухиятдинова Айнура Муратдиновна

Совершенствование программного обеспечения развития
медиаграмотности студентов в условиях цифровизации 23

Muxiyatdinova Aynura Muratdinovna

Improving the software for the development of students' media literacy in
the context of digitalization 44

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 48

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.01.2020. Ped. 26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MUXIYATDINOVA AYNURA MURATDINOVNA

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING
MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY
TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.\

Ilmiy rahbar:

Toshpulatova Ma’muraxon Ismoilovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Kamolov Azamat Farhodovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____ dagi _____ - raqamli restr bayonnomasi).

N.Z.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy sohada raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi, shu bois mediasavodxonlik zamonaviy yosh avlod uchun zaruriy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Foydalanuvchilar feyk yangiliklardan himoyalaniishi, kibexavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, talabalarning raqamli savodxonligi va xavfsiz onlayn faoliyat yuritish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida sun'iy intellekt texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish, sun'iy intellekt va "big data" texnologiyalari asosida interaktiv o'qitish platformalari orqali mediasavodxonlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish universitetlar o'zlarining ichki platformalarida talabalar faoliyatini monitoring qilib, ularni noto'g'ri axborotlardan ogohlantiradigan tizimlarni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan "Media Detective" platformasi orqali talabalarga yolg'on ma'lumotlarni aniqlash imkoniyatini yaratish bo'yicha tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan dasturiy yechimlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish, mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun faqatgina nazariy bilim emas, balki uni qo'llab-quvvatlaydigan interaktiv, raqamli va innovatsion dasturiy ta'minotlarni takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi". Innovatsion axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, fanlarning axborot-metodik ta'minotini yaratish, raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini ishlab chiqishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

Ushbu dissertatsiya ishi, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni, shuningdek, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son hukumat qaroriga ilova qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2020-yil 24-yanvarda

Prezident tomonidan Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnoma¹ hamda 2021-yil 29-martdagi 163-son qarorda belgilangan professional ta‘lim tizimida dual ta‘limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha topshiriqlarni amalga oshirishga muayyan hissa qo‘shadi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarida rivojlanishini ta‘minlash, innovatsion g‘oyalarni shakllantirish va ularni hayotga tatbiq etish” doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta‘limga raqamli texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va metodikasi bo‘yicha B.C.Abdullayeva, A.A.Abdulloqodirov, U.Begimkulov, R.X.Djurayev, J.A.Hamidov, I.X.Nasriddinov, I.X.Soliyev, X.A.To‘raqulov, A.R.Xodjaboyev, F.M.Zakirovalar, internet texnologiyalaridan foydalanish va talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish masalasi bo‘yicha J.A.Axmedov, M.Ashurov, G‘.G‘ulomov, R.Haydaraliyev, M.Karimov, N.A.Muslimov, M.Nishonova, N.Sh.Ruzikulova, M.I.Toshpulatova, X.R.Tuxtamatovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

MDH davlatlarida A.Andreev, K.Arxiyov, A.Yershov, Ye.I.Mashbis, S.I.Osipova, Ye.Polat, I.V.Robert, Yu.V.Sharonin, N.F.Talizina va boshqalar tomonidan ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar tomonidan raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish muammolari L.W.Anderson, D.Buckingham, S.Fayrstoun, J. Frau-Meigs, R.Hobbs, R.Kibey, D.Keyegan, S.Livingstone, S.K.Mangal, W.Potter, F.Raymondlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi: Ushbu dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot rejasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar kesimida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlar tayyorlash sifati, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, elektron ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, shuningdek, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar, multimedia hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish” yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta‘lim muassasalarida raqamli ta‘lim muhitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

¹ <https://lex.uz/docs/5013007>; <https://lex.uz/docs/3107036?ONDATE=01.05.2021>; <https://lex.uz/docs/3431985>; <https://lex.uz/docs/4545884>; <https://lex.uz/docs/4545884>; <https://lex.uz/docs/5346217>.

talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini mazmunini takomillashtirish;

dasturiy ta'minot vositasida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

raqamlashtirish sharoitida dasturiy ta'minot vositasida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish metodikasi va samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida: raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Termiz davlat pedagogika instituti, Andijon davlat pedagogika institute va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetlarining Matematika va informatika bakalavr ta'lim yo'nalishining 350 nafar respondent-talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini: raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-uslubiy hamda elektron o'quv manbalarining qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish, ta'lim jarayonini tahlil qilish hamda asosiy tushunchalarni aniqlash maqsadida so'rovnoma, test sinovlari va suhbat usullaridan foydalanildi. Shu bilan birga, pedagogik hamda metodik adabiyotlar chuqur o'rganilib, ularning natijalari tahlil qilindi va o'zaro taqqoslab chiqildi. Analogiya, umumlashtirish, hamda olingan ma'lumotlarni matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash va chuqur tahlil qilish usullari tadqiqotda qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari LMS, JavaScript, HTML, CCS3 interaktiv platformalar vositasida media-analiz, sun'iy intellekt talablaridan samarali foydalanish natijadorligini oshirish hamda avtomatik baholov tizimlari, raqamli kompetensiyalar va tanqidiy tafakkur elementlarini yaxlit uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minoti mazmuni Blended Learning texnologiyasi imkoniyatlarini axborot manbalarini tahlil qilish, "Flipped Learning" metodi, "Rotation" metodi, Media "ACTP", "Flex" metodlarining integrativ elementlarini manzilli uyg'unlashtirish hamda alternativ ta'lim metodlaridan foydalanishga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan;

dasturiy ta'minot vositasida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish modeli talabalarning mediasavodxonligini oshirish darajasini aniqlash, diagnostik baholash tizimini intensivlashtirish hamda talabalarga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar va sifat ko'rsatkichlarini motivatsion, amaliy, refleksiv-baholash mezonlariga ko'ra statistik tasniflash asosida takomillashtirilgan;

raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish samaradorligi tanqidiy fikrlash qobiliyatini, axborotga bo'lgan ijtimoiy mas'uliyatni, mediaetika va tolerantlik tamoyillarini shakllantirishga yo'naltirish

va didaktik ta'minot mazmunini ta'limiy-dasturiy resurslar yaratish intensivligini oshirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalar hozirgi zamonaviy mobil qurilmalar va turli gadjetlardan foydalanib, ta'lim jarayonida bilimlarini rivojlantirishiga xizmat qiladigan "Tarmoq texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma yaratildi (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 27.12.2024-yildagi 5/4.1-son qaroriga asosan berilgan №2024-645U-531 raqamli guvohnoma).

bo'lajak pedagoglarning mediasavodxonligini rivojlantirish maqsadida talabalarni real vaqt rejimida kuzatib borish, talabalarning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini va qaysi ko'nikmalarni rivojlantirishiga xizmat qiluvchi "Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish" nomli dastur platformasi (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 2025-yil 4-yanvardagi № DGU 46827 son guvohnomasi olindi) ishlab chiqilgan va Internet tarmog'iga joylashtirilgan (<https://rshtmo.uz/>).

Tadqiqot natijalarining ishonchligi: Tadqiqot natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodik hamda ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to'plamlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan va xorijiy ilmiy-uslubiy jurnallarda e'lon qilingan ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar orqali yoritilgan. Mavzu doirasida o'tkazilgan anketa so'rovlari va tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi matematik va statistik usullar asosida aniqlangan bo'lib, tadqiqotdan olingan asosiy xulosalar, takliflar va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan va tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini ta'minlanadi, integrativ yondashuv asosida o'qitish natijasida matematika va informatika yo'nalishidagi fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari yaxshilanadi, shuningdek, dasturiy ta'minot orqali talabalar mediasavodxonlik darajasini avtomatik ravishda o'lchash mumkin. Avtomatik baholash tizimlari yordamida talabalarning ko'nikmalari real vaqt rejimida tahlil qilinadi, bu esa o'qituvchilarga individual yondashuvlarni joriy qilish imkonini beradi hamda baholash metodlari ko'rsatkichlari va darajalari tanlanganligi hamda asoslanganligi bilan ahamiyatlidir.

Olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular tashkil etilgan modelning samarali ishlashini ta'minlaydigan didaktik ta'minotni aniqlash va uni amaliyotda sinab ko'rishga, raqamli ta'lim muhitida dasturiy yechimlar orqali axborot texnologiyalari bilan ta'lim metodikalarini uzviy integratsiya qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv talabalar orasida informatsion xavfsizlik, mediaetika tamoyillari va axborotga nisbatan ijtimoiy mas'uliyatli munosabat shakllanishiga ko'maklashadi. Mediasavodxonlik darajasining ortishi esa ijtimoiy va madaniy mas'uliyatni kuchaytiradi. Talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ilmiy yondashuvga asoslangan,

amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi orqali mediasavodxonlikka ega yosh kadrlarni tayyorlashda yangi imkoniyatlar yaratishga imkon berishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari LMS, JavaScript, HTML, CCS3 interaktiv platformalar vositasida media-analiz, sun'iy intellekt talablaridan samarali foydalanish natijadorligini oshirish hamda avtomatik baholov tizimlari, raqamli kompetensiyalar va tanqidiy tafakkur elementlarini yaxlit uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Tarmoq texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 12.05.2025-yildagi 11-05-3009/04 son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning mediasavodxonligini va amaliy malakalarni rivojlantirish imkoni kengaytirilgan;

talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minoti mazmuni Blended Learning texnologiyasi imkoniyatlarini axborot manbalarini tahlil qilish, "Flipped Learning" metodi, "Rotation" metodi, Media "ACTP", "Flex" metodlarining integrativ elementlarini manzilli uyg'unlashtirish hamda alternativ ta'lim metodlaridan foydalanishga yo'naltirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Tarmoq texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 12.05.2025-yildagi 11-05-3009/04 son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur o'quv-uslubiy ta'minot orqali bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning sifatini oshirishga erishilgan;

dasturiy ta'minot vositasida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish modeli talabalarning mediasavodxonligini oshirish darajasini aniqlash, diagnostik baholash tizimini intensivlashtirish hamda talabalarga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar va sifat ko'rsatkichlarini motivatsion, amaliy, refleksiv-baholash mezonlariga ko'ra statistik tasniflash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Tarmoq texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 12.05.2025-yildagi 11-05-3009/04 son ma'lumotnomasi). Natijada raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish mazmuni boyitilgan;

raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish samaradorligi tanqidiy fikrlash qobiliyatini, axborotga bo'lgan ijtimoiy mas'uliyatni, mediaetika va tolerantlik tamoyillarini shakllantirishga yo'naltirish va didaktik ta'minot mazmunini ta'limiy-dasturiy resurslar yaratish intensivligini oshirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Tarmoq texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 12.05.2025-yildagi 11-05-3009/04 son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirishning infratuzilmasi kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi: dissertatsiya mavzusi yuzasidan 13 ilmiy va uslubiy ish chop etilgan, shundan, OAK ro’yxatida qayd etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, undan 3 ta respublika va 1 ta xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya ishi kirish, uch bob, 135 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalar va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish metodologiyasi, raqamli ta’lim muhitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida va raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy vositalari va imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Bugungi kunda ta’lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Global miqyosda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ta’lim mazmuni, shakllari va metodlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli vositalar yordamida bilim olishga bo‘lgan yondashuvlar yangilanmoqda, bu esa pedagogik jarayonning yangi nazariy asoslarini talab etmoqda.

Raqamli texnologiyalar kirmagan soha va tarmoq qolmadi. Shu boisdan mamlakatimizda jamiyat va ishlab chiqarish, iqtisodiyot, davlat organlarining barcha tarmoq va sohalarida raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish maqsadida huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarori hamda 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni mamlakatimizda raqamlashtirish ishlarining jadallashuviga asos bo‘lmoqda.

Ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kiritish borasida ko‘plab olimlar, jumladan, pedagog-tadqiqotchilar faoliyat olib borganlar. Mazkur jarayonda kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish borasidagi

dastlabki ilmiy izlanishlarni olib borgan mutaxassislardan biri – Ye.I.Mashbits takidkashicha ta’limni kompyuterlashtirish bu qaytmas jarayondir. Ushbu jarayon o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, balki u ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar va zamonaviy hisoblash texnikasi hamda dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilar sa’y-harakatlariga bog‘liq degan.

Shunga bog‘liq dissertatsiyada mediasavodxonlikga mos dasturiy ta’minot - talabalarda axborotni tahlil qilish, ishonchli manbalarni aniqlash, soxta axborotdan himoyalanih, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi, ta’lim jarayonini zamonaviylashtiruvchi , didaktik jihatdan asoslangan, axborot texnologiyalarini integratsiyalovchi, interaktiv va multimediasaviy vositalarni o‘zini mujassamlashtirgan majmua deb ta’riflangan.

Yu.V.Sharonin va S.I.Osipovalarni fikricha ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab yangiliklarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslashda xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni “raqamlashtirish” muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir deb takidlagan. Shu bois keltirilgan fikrlarni inobatga olib ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarurati bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri deb hisoblanadi.

Tadqiqot ishida “Axborot savodxonligi”, “Kompyuter savodxonligi” va “Mediasavodxonlikka” alohida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan: Axborot savodxonligi bu shaxsning kerakli axborotni aniqlash, unga kirish, undan samarali foydalanish va uni axloqiy, qonuniy tarzda ishlatish qobiliyatidir. Ya’niy “Axborot savodxon shaxs bu kerakli axborotni aniqlay oladigan, unga baho berib, undan samarali foydalanadigan insondir.”

Kompyuter savodxonligi bu insonning kompyuter va unga aloqador raqamli texnologiyalarni tushunish, ishlata olish va muammolarni hal qilishda ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda: Kompyuter savodxon odam, kompyuterni yoqishni biladigan, dasturlar bilan ishlay oladigan, fayllarni saqlab, internetdan ma’lumot topa oladigan, shuningdek axborot xavfsizligi qoidalariga amal qiladigan odamdir.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va xavfsiz foydalanish uchun har bir talabning mediasavodxonligi rivojlangan bo‘lishi zarur. Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lib, bu yuzasidan bir qancha olimlar tadqiqot ishlarini olib brogan. Mediasavodxonlik inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas’uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo‘lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

M. Nishonova axborot texnologiyalarini ta’limga joriy qilish va raqamli vositalar yordamida savodxonlikni oshirish masalalarini yoritadi.

R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma’lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi.

Dissertatsiyada mediasavodxonlik - shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan materiallarni tushunish, ularni tahlil qilish, baholash va tanqidiy fikr yuritish asosida anglab yetish hamda ma'lumotni ongli tarzda ishlab chiqish va tarqatish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va raqamli muhitda xavfsizlikni ta'minlash ko'nikmasi deb ta'riflangan.

N.F.Talizina tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar pedagogik dasturiy vositalarni yaratish va ularning metodik asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, kompyuter o'quv jarayoniga yordamchi vosita sifatida emas, balki mustaqil o'quv muhitini shakllantiruvchi platforma sifatida qaralishi kerak. Dasturiy vositalar orqali nafaqat bilim berish, balki talabning faoliyatini boshqarish, baholash va differensial yondashuvni joriy etish mumkin deb takidlagan. Shu bois talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishda dasturiy vositalar muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish uchun dasturiy vositalar va imkoniyatlar keng ko'lamda mavjud bo'lib, ular zamonaviy ta'lim jarayonida axborotdan to'g'ri va ongli foydalanishni o'rgatadi. Bunday dasturiy vositalar: interaktiv ta'lim platformalari, axborot tahlili vositalari, multimedia dasturlari, zamonaviy texnologiyalar talabalarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, ijodiy kontent yaratish va raqamli muhitda xavfsiz harakat qilish ko'nikmalarini o'rgatadi. Masalan, Coursera, EdX, Udemy, FutureLearn kabi global onlayn ta'lim platformalarida mediasavodxonlik bo'yicha maxsus kurslar joylashtirilgan bo'lib, ularda media kontentni tahlil qilish, manbalarni baholash, yolg'on ma'lumotlarni aniqlash va axborot xavfsizligiga oid bilimlar tizimli ravishda taqdim etiladi. Ushbu platformalar orqali talabalar mustaqil o'qish, amaliy mashqlar bajarish va o'z bilimlarini testlar orqali baholash imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, mediasavodxonlikni shakllantirishda mobil ilovalar va maxsus elektron dasturlar ham muhim o'rin tutadi. Interaktiv ilovalar media makondagi ma'lumotlar bilan ishlash, haqiqiy va soxta axborotni farqlash, axborotni tarqatishdagi etik me'yorlar bo'yicha o'quv materiallarini taqdim etadi. Ushbu ilovalar talabalarda axborotni tahlil qilish, savol berish, tanqidiy munosabat bildirish va xulosa chiqarishga doir bilimlarni amaliy faoliyat orqali shakllantiradi.

Zamonaviy ta'limda Internet bilan ishlash, birgalikdagi faoliyat, o'rganish uchun Internet muhitidan foydalangan holda loyihalar va tadqiqotlar o'tkazish qobiliyati birinchi o'rinda turadi. Markaziy Osiyoda xususan O'zbekistonda mediasavodxonlik va axborot xavfsizligini oshirishga qaratilgan bir qator loyihalar mavjud bo'lib, ular turli xil ma'rifiy dasturlar va interaktiv o'yinlar orqali yoshlar orasida tanqidchilik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

“QLEVER Asia” loyihasi; “Media Literacy Caravan” loyihasi; “Central Asia Media Literacy Project”; “Unlocking Media Literacy” loyihasi; “ERIM” loyihalari shular jumlasidandir. Bu loyihalar Markaziy Osiyoda mediasavodxonlikni oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslardir va ular orqali ishtirokchilar axborot olamida yanada faol va mas'uliyatli bo'lib borishlari mumkin.

Dissertatsiya ishining **“Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini yaratish texnologiyalari va mazmuni, dasturiy ta'minot

vositasida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish modeli va dasturiy ta'minot vositasida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish metodikasi atroflicha yoritilgan.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelgan, shu qatori ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Shu bois har bir ta'lim oluvchini jalb qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Bunday sharoitda ma'lumotlarni taqdim etish usullarini yaxshilash muhimdir. Shuning uchun zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, talabalar va o'qituvchilar uchun moslashuvchan, tezkor va qulay o'qitish vositalarini ya'ni, elektron platformalarni yaratish muhim hisoblanadi.


Talabalarning media savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish axborot texnologiyalari va ta'lim metodologiyasining integratsiyasini talab qiladi. Ushbu jarayonda foydalaniladigan texnologiyalar interaktiv, foydalanuvchi uchun qulay va samarali ta'lim tajribasini ta'minlashga xizmat qiladi. Quyda talabalarning media savodxonligini rivojlantirishga mo'ljallangan dasturiy ta'minotni yaratishda qo'llaniladigan asosiy texnologiyalar, ularning afzalliklari va ta'lim sohasidagi ahamiyati haqida umumiy ma'lumot beriladi. Frontend va backend ishlab chiqishdan tortib, sun'iy intellekt va gamifikatsiya elementlarigacha bo'lgan texnologik yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali va jozibador qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda ilmiy tadqiqot ishini olib borish jarayonida "Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish" loyihasi doirasida "Tarmoq texnologiyalari" fanidan elektron o'quv qo'llanma veb-sayti ishlab chiqildi. Elektron resursni yaratish jarayoni ma'lum maqsadlar va vazifalarga asoslangan holda rejalashtirilib, quydagi bosqichlarda amalga oshirildi (1-rasm).

Ushbu dastur raqamlashtirish jarayonida ta'lim tizimining sifatini oshirish, yosh avlodni global informatsion muhitda samarali va mas'uliyatli ishtirok etishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ushbu veb sayt talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun ham xizmat qiladi. Nafaqat talabalar uchun balki "Tarmoq texnologiyalari" fanidan dars beradigan barcha professor o'qituvchilar uchun ham eng asosiy elektron didaktik ta'minot sifatida xizmat qiladi. Yaratilgan veb saytni masalan G. Umarovanning "Fizika" fani vositasida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini takomillashtirish platformasi" nomli elektron o'quv qo'llanma platformasi misolida SWOT tahlili keltirilgan:

Afzalliklari-Raqamli davrda axborotni tanqidiy tahlil qilishni o'rgatish orqali yolg'on xabarlar, manipulyatsiyalar va kiberjinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirishga yordam beradi. Platforma orqali simulyatsiyalar, testlar, o'yinlar va treninglar orqali o'quv jarayoni qiziqarli bo'ladi. Har bir foydalanuvchining bilim darajasiga moslashtirilgan o'quv materiallar jamlangan.

Talabalarning faoliyatini monitoring qilish imkonini beradi va bilimni shaffof baxolashga xizmat qiladi. Interaktiv platformani universitet o'quv dasturiga integratsiya qilish orqali talabalarining mediasavodxonligi oshadi.



1-rasm. “Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish” saytini yaratish bosqichlari

Imkoniyatlari- Platformani universitetlar o‘quv dasturiga kiritish imkoniyati. Mustaqil o‘rganish yo‘nalishlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Platformani turli tillarda ishlab chiqish orqali ko‘proq auditoriyani qamrab olish imkonini beradi. Talabalar uchun istalgan joyda foydalanish imkoniyati mavjud.

Tahdidlar- Foydalanuvchi ma’lumotlari maxfiyligini ta’minlash zarur. Talabalar va o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari past bo‘lishi platformadan to‘laqonli foydalanishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Kontentdan foydalanishda mualliflik huquqlariga rioya qilish zarur.

Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya’ni mediasavodxonlik, mediata’lim, mediani o‘rganish va boshqalar bir- biri bilan bog‘liq bo‘lsa-da, olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinmoqdalar. Bugungi kunda mediaaxborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda mediasavodxonlik tushunchasi bilan birgalikda mediata’lim, mediani o‘rganish, mediamadaniyat tushunchalari ham qo‘llanilayapti. Tadqiqot ishini bajarish davomida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini alohida ajratib olingan va ular


quyidagilardan iborat: Mediani o'rganish (media studies); Media ta'lim (media education); Mediasavodxonlik (media literacy).

B.Xodjayevning fikriga ko'ra, modellashtirish har doim boshqa ilmiy metodlar bilan birga qo'llaniladi va u eksperiment bilan chambarchas bog'liq. Pedagogik tizimni tadqiqotida modeli eksperiment qo'llaniladi. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda mantiqiy modellashtirishning har xil shakllaridan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli ifodalash imkoniyatini beradi. Modelni eksperiment ta'lim-tarbiya muassasalarining loyihasida, ta'lim-tarbiya vositalarini ishlab chiqishda samarali metoddir. Ta'lim-tarbiya jarayoni pedagogik kadrlar tayyorlashni ideallashtirishda modellashtirish hal qiluvchi imkoniyatga ega. Pedagogik jarayonning ideal shakli, tizimli modellashtirish orqali ifodalanadi, konseptual xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shunga mos holda modellashtirish – bu real mavjud predmetlar, hodisalar va tuzilayotgan ob'ektlarning modellarini, ularni xarakteristikasini yaxshilash, ularni tuzish usullarini ratsionallashtirish, ularni boshqarish va shu kabilar uchun tuzish hamda o'rganishdir. Modellashtirishning maqsadi-bu tadqiq qilinadigan pedagogik tizimlarning sxematik tasvirlashdir.

Ob'ektlar va jarayonlarni modelni namoyish qilish hamda tadqiq qilish murakkab ilmiy va amaliy masalalarni hal qilish uchun qo'llaniladi. Yuqoridagi keltirilgan fikirlarga ko'ra raqamlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish modelini tizim nuqtai-nazaridan ko'rib chiqilgan, mediamuhitga tahliliy yondashish sifatida o'zaro bog'liq elementlar ma'lum bir yaxlit tizimni tashkil qiladi, bu uni quyidagi bloklarga bo'lishga imkon berdi: maqsadli, metodologik, mazmunli va natijaviylik bloklaridan iborat bo'lgan model 2-rasmda keltirilgan. Bu model o'zida didaktik ob'ektlarni qamrab olgan bo'lib, o'qitishning sharoitlari, mazmuni, metodlari, shakllarini tasvirlash imkonini beradi. Shuningdek modelni ilgari mavjud bo'lgan ta'limiy modellardan farqli o'laroq, raqamli transformatsiya va zamonaviy axborot muhitining ta'limga ta'siri, talabning raqamli tafakkuri va mediafaolligini rivojlantirishga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida media-axborot kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgani bilan va imkoniyati cheklangan shaxslarga masofaviy ta'lim olish muhitini yaratishi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarini tashkil qilishda faqat bitta ta'lim usuli – masalan, an'anaviy, elektron yoki ilg'or texnologiyalarga asoslangan usullar – yuqori samaradorlikni ta'minlay olmaydi. Har bir usulning o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari mavjud. An'anaviy ta'lim o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa va muhokama imkonini bersa-da, zamonaviy raqamli vositalarning imkoniyatlaridan yetarlicha foydalana olmaydi. Elektron ta'lim masofadan o'qish va keng axborot resurslariga ega bo'lish imkoniyatini taqdim etadi, lekin ba'zida o'quvchilarning motivatsiyasi pasayishi yoki ijtimoiy faollikning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, ta'lim sohasidagi eng muvaffaqiyatli yondashuv sifatida aralash ta'lim ko'riladi. Aralash ta'lim (inglizcha: blended learning) – bu an'anaviy yuzma-yuz ta'lim va zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan onlayn ta'lim usullarining uyg'un integratsiyasidan iborat bo'lgan o'quv yondashuvi.



2-rasm. Talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirishning mantiqiy-funksional modeli

Bu usul talabalarga moslashuvchanlik, shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasi va keng axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Bugungi kunda aralash ta'lim ta'lim sohasida eng samarali va istiqbolli yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda, chunki u turli ta'lim shakllarining afzalliklarini birlashtirib, ularning kamchiliklarini minimallashtiradi. Aralash ta'lim turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, ularning har biri o'quv muhitiga va maqsadlarga qarab farqlanadi. Quyida eng keng tarqalgan metodlar keltiriladi:

Flipped Learning (Teskari auditoriya): Talabalar uyda videodarslar yoki onlayn materiallar orqali yangi mavzular bilan tanishadi, auditoriyada esa o'qituvchi rahbarligida muhokamalar, amaliy mashqlar yoki loyihalar bilan shug'ullaniladi. Bu metod talabalarning faolligini oshiradi va auditoriya vaqtini samaraliroq ishlatishga yordam beradi.

